



The portrayal of the art of warfare, military weaponry, and leadership skills in "Baburnama"

Jakhongir EGAMNAZAROV¹

Namangan State Technical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5

September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October
2025

Keywords:

"Baburnama",

Military terminology,

Firearms and artillery,

Tufakchi / Tufakandoz,

Ra'd / Ra'dandoz,

Military tactics, Heavy

artillery,

Babur's military leadership.

ABSTRACT

This article analyzes the use and significance of military terms in the work *Baburnama*. It highlights Babur Mirza's military leadership skills, his strategic approaches in warfare, and his application of contemporary military technologies. Terms such as *tufakchi*, *tufakandoz*, *ra'dandoz*, *zarbzan*, *to'lg'ama*, and *Rum dasturi* are examined in terms of their semantics and relevance in medieval military art. Descriptions of battles illustrate Babur's innovative organization of troops and his practical knowledge in deploying heavy artillery. The article positions *Baburnama* as a valuable source for military linguistics and contributes to the study of medieval Eastern military terminology.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp205-209>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Boburnoma" da harbiy jang san'ati, harbiy qurol-aslaha va sarkardalik mahoratining tasviri

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

"Boburnoma",

harbiy terminlar,

O't ochuvchi qurollar,

tufakchi / tufakandoz,

ra'd / ra'dandoz,

harbiy taktikalar,

og'ir artilleriya,

Boburning sarkardalik

san'ati.

Mazkur maqolada "Boburnoma" asarida harbiy terminlarning qo'llanishi va ularning mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Bobur Mirzoning sarkardalik mahorati, harbiy strategiyalari hamda janglarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanganligi misollar asosida ochib beriladi. Xususan, *tufakchi*, *tufakandoz*, *ra'dandoz*, *zarbzan*, *to'lg'ama*, *Rum dasturi* kabi atamalar tahlil qilinib, ularning semantik xususiyatlari hamda o'sha davr harbiy san'atidagi o'rni yoritiladi. Jang sahnalarining tasviri orqali Boburning jangovar pozitsiyalarni tashkil etishdagi noan'anaviy yondashuvlari, og'ir artilleriyadan foydalanishdagi bilim va tajribasi ko'rsatib beriladi. Maqola "Boburnoma"ni harbiy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish uchun muhim manba sifatida qayd etadi hamda o'rta asr Sharq harbiy atamalarini tadqiq qilishga hissa qo'shadi.

¹ Doctoral student, Namangan State Technical University.

Описание военного искусства, вооружения и полководческого мастерства в «Бабур-наме»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

«Бабур-наме»,
Военные термины,
Огнестрельное и
артиллерийское оружие,
Туфакчи / Туфакандоз,
Раъд / Раъдандоз,
Военная тактика,
Тяжелая артиллерия,
Военное мастерство
Бабура.

В данной статье рассматривается использование и значение военной терминологии в произведении «Бабур-наме». Анализируются полководческое мастерство Захириддина Мухаммада Бабура, его стратегический подход в ведении боевых действий, а также применение передовых военных технологий своего времени. Такие термины, как *туфакчи*, *туфакандоз*, *раъдандоз*, *зарбзан*, *тулгъама*, *рум дастури* изучаются с точки зрения их семантики и роли в военном искусстве средневековья. Через описания сражений показаны инновационные методы организации войск и использование тяжёлой артиллерии. Статья представляет «Бабур-наме» как ценный источник по военной лингвистике и вносит вклад в исследование средневековой восточной военной терминологии.

KIRISH

Hozirgi davrda Bobur va uning ijodiy merosini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbari o'zining Bobur yurti Andijonga tashrifida ham bu masalaning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "... hazrati Bobur – jahon tarixida kamdan-kam uchraydigan shunday benazir, ulug' zotki, uning sharafiga nafaqat ko'cha va maydonlar, bog'u rog'lar, balki alohida shahar bunyod etsak, albatta arziydi. Nega deganda, Bobur Mirzo – Temuriylar Renessansining munosib davomchisi, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot, iste'dod homiysi bo'lgan buyuk shaxsdir. Uning yoshlik paytlaridan yurtda tinchlik va adolat o'rnatish uchun olib borgan kurashlari, bu yo'lda ko'rsatgan mardlik va jasorati fidoyilik va vatanparvarlik maktabidir. Hech shubhasiz, qomusiy bilim va tafakkur egasi bo'lgan bu mumtoz ajdodimizning birgina "Boburnoma" asari uchun ham uning sharafiga mana shunday go'zal shaharchani bunyod etsak, arziydi." [1].

Darhaqiqat, "Boburnoma" nodir asar bo'lib, uning o'ziga xosligi asarning o'rta asrlardagi turli sohalarni qamrab olganligida namoyon bo'ladi. Xususan, asar O'rta Osiyo va Hindiston hududidagi xalqlarning madaniyati va turmush tarzi, davrga xos matematik o'lchov va hisob atamallari, shaharsozlik, hududlarning geografik joylashuvi, hayvonot va nabodot olami, tabiati, astronomiya, etnografiya, harbiy soha, tilshunoslik kabi ko'plab sohalar uchun muhim manba sifatida e'tirof etiladi.

"Boburnoma" matnida shuningdek jang sahnalari va harbiy sohaga oid terminlar ham ko'plab uchraydi. Ushbu terminlar Boburning harbiy yetakchi sifatidagi mahoratini va harbiy strategiyalarni aniq tasvirlaydi. Ayniqsa, Boburning janglarda qo'llagan usullari, qo'shinlarni boshqarishdagi tajribasi va dushman kuchlariga qarshi kurashda amalga oshirgano' taktikalari uning harbiy san'atdagi mahoratini namoyish etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

"Boburnoma"ni harbiy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni nisbatan kam bo'lsa-da, asarning tarixiy, adabiy va lingvistik xususiyatlarini yorituvchi ko'plab ilmiy manbalar mavjud. Aksar tadqiqotlar asarda bayon

etilgan tarixiy voqealar, geografik joylar, adabiy uslub xususiyatlar va lingvistik vositalarni hamda ularning tarjimalardagi ifodasini o'rganishga qaratilgan. Biroq "Boburnoma"dagi harbiy terminologiya, jangovar texnika va sarkardalik strategiyalarining chuqur tahlili hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Ishoqov F. tomonidan tuzilgan *"Boburnoma uchun qisqacha izohli lug'at"* asarda uchraydigan harbiy terminlarning mazmun-mohiyatini ochishda muhim manba hisoblanadi. Muallif har bir terminning semantik xususiyatlarini izchil bayon etadi. Sh. To'xtayeva esa o'z tadqiqotida turkiy tillarda qurol nomlarining shakllanishi, xususan *"tufak"*, *"tufang"*, *"miltiq"* kabi terminlarning tarixiy ildizlari va semantik rivojlanish bosqichlarini tahlil etgan. Bundan tashqari, G. Fattoyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Amir Temurning harbiy tashkilotchiligi va boshqaruv uslubi tahlil qilinib, o'rta asrlar harbiy tizimining asosiy tamoyillari yoritilgan. Ushbu jihatlar Boburning sarkardalik mahorati bilan qator o'xshashliklarga ega bo'lib, ikkala tarixiy shaxsning strategik tafakkuridagi uzviylikni ko'rsatib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda "Boburnoma" asarining o'zbekcha nashri asosiy manba sifatida tanlandi. Undagi harbiy terminlar tizimli ravishda ajratib olinib, ularning ma'nosi, qo'llanish sohasi va tarixiy kontekstdagi o'rni o'rganildi.

Tahlil jarayonida **lingvistik**, **semantik** hamda **tarixiy-komparativ** metodlardan foydalanildi. Lingvistik metod yordamida terminlarning morfologik tuzilishi, so'z yasash xususiyatlari va kontekstdagi vazifasi tahlil qilindi. Semantik metod orqali harbiy terminlarning ma'no qatlamlari, sinonimik va konnotativ farqlari aniqlab borildi. Tarixiy-komparativ metod esa ularning o'z davrining harbiy tizimi va ijtimoiy-tarixiy sharoitidagi shakllanish jarayonini yoritishga xizmat qildi. Mazkur metodlar birgalikda qo'llanilishi natijasida "Boburnoma"dagi harbiy terminologiya va lingvistik xususiyatlari, Boburning sarkardalik tafakkuri va harbiy leksikaning davr bilan bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Boburnoma"da keltirilgan Rana Sanga va Bobur o'rtasidagi jang tasviri yuqorida bildirilgan fikrlarning isbotidir. Ushbu jang tasvirida *barong'or*, *javong'or*, *g'ul* kabi harbiy harakatlardagi qo'shinning bo'linishini ifodalovchi; *to'lg'ama*, *Rum dasturi* kabi taktik amaliyotlar; *tufak*, *zarbzari*, *ra'd* kabi qurollar hamda bu turdagi qurollardan foydalanuvchi askarlarni ifodalovchi *tufakchi*, *tufakdanoz*, *ra'danoz* singari askar turlari qayd etiladi. Ayniqsa ushbu jangda o't ochuvchi qurollarning ahamiyati yuqori bo'lganligini jang tasvirlarida ko'rishimiz mumkin:

"... Hushyorlik va ehtiyotkorlikni ko'zda tutib, qo'shinning old tomoniga qo'yilgan tufakchilar va ra'danozlarni Rum jangchilari tariqasida panalash uchun, arobalardan bir saf tortib berib, ular bir-birlariga zanjir bilan tutashtirildi".

Ushbu matn parchasi Bobur qo'shinining harbiy jihatdan qanday joylashtirilgani va mudofaa usullari haqida muhim ma'lumot beradi. Jumladan, **tufakchilar** va **ra'danozlar** qo'shin oldingi safga joylashtirilgan bo'lib, ular himoya maqsadida aravalar bilan berkilgan. *"Rum jangchilari tariqasida"* iborasi esa, Bobur o'z qo'shinida zamonaviy harbiy tajribalarni joriy qilganini ko'rsatadi. Bu o'sha davr xalqlari o'rtasidagi madaniy va harbiy aloqalarning mavjudligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu misol Boburning mohir sarkarda sifatida turli askar turlarini samarali joylashtira olganini va harbiy strategiyasini doimiy takomillashtirib borganini yaqqol ko'rsatadi.

Bu o'rinda foydalanilgan **“tufakchi”** so'zi tufak otuvchi askarni ifodalaydi. Tufak esa tilimizda mavjud bo'lgan *miltiq* so'zining dastlabki nomlanishidir. Keyinchalik u fors va boshqa tillarga **“tufang”** shaklida o'tgan. To'pponcha yaratilgandan keyin esa, bu qurol “kalta miltiq” ma'nosida turk va fors tillarida “to'pponcha”, “tufangcha”, “tubangcha” qabilida atala boshlagan [2]. “Boburnoma”da bu atama **tufang** ko'rinishida ham uchraydi:

*“... Bajavr eli chun **tufangni** ko'rmaydur edilar, tufang unidin hech navoye qilmadilar. ...”*

“Tufakchi” termini esa matndagi boshqa o'rinda **“tufakandoz”** ko'rinishida uchraydi:

*“... Podshoh guruhining **tufakandozlari**, buyruq bo'yicha, arobadan maydon o'rtasiga kelib, har birlari kofirlardan ko'piga o'lim zaxarlarini ichirdilar.”*

Ra'dandoz termini **“Boburnoma”** uchun qisqacha izohli lug'atga ko'ra “olov otadigan qurolni boshqaruvchi” ma'nosini anglatadi. **Ra'd** terminining o'zi esa arabchadan tarjima qilinganda “momaqaldiraq” degan ma'noni anglatadi. “Boburnoma”ga ko'ra esa **ra'd** – qo'shinda ichiga yonuvchi modda neft solingan ko'zachalar irg'ituvchi o't sochish quroli sifatida ishlatiladi. Ra'd to'pi qalay, simob, va mis qorishmalari temir bilan aralashtirib, damli o'choq va qo'rada eritilgan. Eritmadan ichi bo'sh, dumaloq shakldagi snaryad- ra'd toshi yasalgan. Bu snaryad ichi porx – doru (adoviy) bilan to'ldirilgan. Bu snaryad sirtida ikkita teshik bo'lib, ular o't piligi – fatila o'rnatilgan so'ngra snaryad to'p kamoni – ra'd yoyiga joylashtirilgan. O't piligi yoqilgach, snaryad dushman qal'asi yoki qo'rg'oni tomon otilgan [3].

Asarda yana ko'plab o'rinlarda yuqorida o't ochuvchi qurollarning jangdagi ahamiyati masalasida bildirilgan fikrlarni asoslovchi jumlar keltirilgan.

*“... aziz farzandimiz Muhammad Humoyun Bahodirning g'ulidan arobalarni oldinga keltirib, kofirlarning qo'shinlari saflarini **tufak** va **zarbzan** bilan o'z qalblaridek chilchil qildi”.*

*“Zamona nodiri ustod Aliquli o'z kishilari bilan g'ulning oldida turib, mardonalik ko'rsatib, temir qo'rg'ondek kofirlar safiga shunday katta jussali **toshlarni** otardiki, agar u toshning amallar tarozisiga solsalar, egasi “Kimning toshi og'ir kelsa, u yaxshi turmushda yashaydi”, degan nom oladi va agar qattiq toqqa va baland tepaga otsalar “taralgan yungday” tit-pit qilib yuboradi. Mana shunday **tosh**, **tufak** va **zarbzan** otish bilan ko'pchilik kofirlar jismining binolarini qulatdi”.*

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, “Boburnoma” asarida qo'llanilgan harbiy terminlar Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahoratini, strategik tafakkurini va o'z davrining ilg'or texnik vositalaridan foydalanganligini yaqqol namoyon etadi. Asardagi *tufakchi*, *tufakandoz*, *ra'dandoz*, *zarbzan*, *Rum dasturi* kabi terminlar o'rta asr Sharq harbiy san'atida o't ochuvchi qurollar va og'ir artilleriya turlarining keng qo'llanilganidan dalolat beradi. Bu atamalar nafaqat o'sha davr harbiy leksikasining boyligini ko'rsatadi, balki texnik tafakkurning rivojlanish bosqichlarini ham yoritadi. Boburning janglarda qo'llagan taktik usullari, jang maydonini tashkil etishdagi noan'anaviy yondashuvlari va turli askar turlarini samarali joylashtira bilish qobiliyati uning sarkardalik salohiyati naqadar yuqori bo'lganini tasdiqlaydi. Ayniqsa Rum jangchilari tajribasidan foydalanish, aravalar yordamida himoya chizig'ini tashkil etish kabi taktikalar o'sha davr uchun ilg'or strategik yondashuv bo'lgan.

Shu bois, “Boburnoma” nafaqat tarixiy va adabiy manba, balki harbiy tilshunoslik va terminologiya uchun ham bebaho ilmiy manba sifatida e'tirof etilishi lozim. Asarda qo'llanilgan harbiy terminlarni chuqur o'rganish Bobur davri harbiy texnikasi, qurollar tizimi va jangovar boshqaruv tamoyillarini yanada aniqroq tasavvur etish imkonini beradi.

Kelgusida ushbu yoʻnalishda olib boriladigan tadqiqotlarda “Boburnoma”dagi harbiy terminlarni zamonaviy oʻzbek tili terminologiyasi bilan qiyosiy oʻrganish, ularning ingliz, turk va fors tillariga tarjimalarida semantik farqlarni tahlil qilish, shuningdek, Boburning sarkardalik yondashuvlarini zamonaviy harbiy strategiya va psixologiya bilan bogʻliq holda oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa, bu tadqiqot “Boburnoma”ni harbiy-lingvistik yondashuvda oʻrganish orqali oʻrta asr Sharq harbiy tafakkurining rivojlanish bosqichlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Sh. Mirziyoyev, *Andijon viloyatida yangi barpo etilgan Bobur shahrida oʻtkazilgan tantanali marosimdagi nutqi*. Prezident.uz, 15-apr. 2025.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. – Toshkent: Sharq NMAK, 2002.
3. Ishoqov F., “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lugʻat. – “Andijon nashriyotmatbaa” OAJ, 2008.
4. Toʻxtayeva, Shahnoza. "Miltiq soʻzi ‘tuflamoq’ feʼlidan kelib chiqqan – qurollarning turkiycha nomlari qanday boʻlgan?" *Oyina.uz*, 16 iyul 2024, <https://oyina.uz/uz/article/2870>.
5. Fattoyeva, G. H. *Amir Temurning harbiy tashkilotchiligi va sarkardalik mahorati*. Ilm-fan xabarnomasi: Worldlyknowledge nashriyoti ilmiy elektron jurnali, 4-son, – 2024., 75–77-bet.